

TIBBIY XIZMATLAR KO'RSATISH BO'YICHA SHARTNOMA: NAZARIYA VA AMALIYOTNING AYRIM MASALALARI

Jamshid Abdullayev Djamilovich

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), "Adliya a'lochisi"

Email:jamshidb003fb@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada tibbiyot sohasida shartnomaviy huquqiy munosabatlar bilan bog'liq tushunchalar, tibbiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha shartnomaning ayrim jihatlari ilmiy-nazariy tahlil qilingan va tibbiy xizmatlar bilan bog'liq munosabatlarning nazariya va amaliyot masalalariga ta'rif berilgan.*

Kalit so'zlar: *Haq evaziga tibbiy xizmatlar ko'rsatish shartnomasi, majburiy tibbiy sug'urta, fuqarolarning sog'liqni saqlash, tibbiy xizmatlarni moliyalashtirish manbalari, fuqarolik sudlarida da'volarning soni va ko'lami, tibbiy xizmatdagi nuqsonlar, tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasi doirasi, mas'uliyat, to'lov shartlari.*

O'zbekiston Respublikasida dunyoning barcha boshqaruvening respublika shaklida ega davlatlar kabi fuqarolarning sog'liqni saqlash davlatimiz ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur sohadagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasida "har kimning sog'liqni saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi mavjudligi"¹, O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'ligini saqlash to'g'risida"²gi qonunining 13-moddasida "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari sog'liqni saqlash borasida daxlsiz huquqqa egadirlar. Davlat yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar fuqarolarning sog'lig'i saqlanishini ta'minlaydi"³ deb qayd qilingan. Aholining alohida qismiga davlat hisobidan bepul tibbiy yordam ko'rsatiladi. Bunda mvoliyaviy manba sifatida tegishli budget mablag'lari, sug'urta mukofotlari va boshqalar daromadlardan ishtirok etadi hamda asosan bu turdagiligi tibbiy xizmatlar davlat sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan ko'rsatilishi belgilangan.

Dunyo mamlakatlarida haq evaziga tibbiy xizmat ko'rsatilishi bilan bog'liq statistika, tibbiyot masalasi haq evaziga bo'lishi kerakmi kabi savollarga javob topish maqsadida bir qancha tadqiqotlar olib borilmoqda. Juhon sog'liqni saqlash tashkiloti bergan ma'lumotlarga ko'ra: "Haq evaziga tibbiy xizmatlar ko'rsatishning yuki muammosi butun dunyoda dolzarbdir. JSST hisob-kitoblariga ko'ra, sog'liqni saqlash xarajatlari har yili 100 millionga yaqin odamni qashshoqlikka olib keladi". Tan olib aytish kerakki, hamma davlatlarda murakkab va zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatishning narxlari aholi iste'mol savatiga nisbatan ancha yuqori. So'zimizni misol yordamida asoslashga xarakat qilamiz: "2020 yilda Qo'shma Shtatlarda sug'urtagacha yurak transplantatsiyasining o'rtacha narxi 1,664,800 dollarni tashkil

¹ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

² Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 03.08.2021-y., 03/21/705/0742-son; 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son; 04.11.2022-y., 03/22/800/0990-son; 21.01.2023-y., 03/23/815/0044-son

³ М.Чен. Воздействие глобальных кризисов на здоровье: деньги, погода и микробы [Электронный ресурс] / М. Чен // Официальный сайт Всемирной организации здравоохранения. – Режим доступа : http://www.who.int/dg/speeches/2009/financial_crisis_20090318/ru/index.html

etdi. Bu narxning tarkibiga transplantatsiyadan oldingi va keyingi tibbiy yordam, shifoxona to'lovlari, organlarni xarid qilish, to'lovlar va dori-darmonlar kiradi”⁴.

“Hindiston Urologiya jurnali ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat so'nggi 45 yil ichida tirik buyrak transplantatsiyasi dasturi va ishtirokchilar soni bo'yicha AQShdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Asosiy bemorlar oqimi Ukraina, AQSh va Yevropa davlatlaridan kelashadi. Hindistonda buyrak transplantatsiyasi arzon, viza, parvoz va mamlakatda qolish xarajatlarini hisobga olgan holda 10.000-15.000 dollarni tashkil etadi”⁵. Demak, raqamlar narx masalasidagi fikrlarimizni tasdiqlaydi.

Keyingi yillarda mamlakatamizda aholi sonining jadal ko'payishi, aholining to'lov qobiliyati sifatlari tibbiy xizmatlarga mutanosib tarzda oshganligi, davlat sog'liqni saqlash muassasalarining fuqarolarning tibbiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini tekin asosda to'laligicha qondirish imkoniyatining cheklanganligi, fuqarolarning haq evaziga, shaxsiy mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan tibbiy xizmatni rivojlanishiga tabiiy zaruriyatni vujudga keltirdi. Shuningdek, jahonda haq evaziga tibbiy xizmatlar bozorining jadal rivojlanishi, aholining o'z salomatligini yaxshilashga bo'lgan xarakatlari, haqli ravishda zamonaviy tibbiyotning jadal rivoji bu uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Rossiya Federatsiyasida tibbiy xizmatlar ko'rsatishni huquqiy tartibga solish uchun: “Tibbiy taskilotlar tomonidan pullik tibbiy xizmatlar ko'rsatish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida: Rossiya Federatsiyasi Hukumatining 2012-yil 4-oktyabrdagi 1006-sun qarori // NWRF. 2012. № 41. m. 5628”⁶ qabul qilingan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasida haq evaziga tibbiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq munosabatlar “Pullik tibbiy xizmat ko'rsatishga bosqichma-bosqich o'tayotgan davolash-profilaktika muassasalarini moliyalash tartibi”⁷ (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999-yil 22-martda 679-sun bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan), O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining “Pullik tibbiy xizmat ko'rsatishga bosqichma-bosqich o'tayotgan davolash-profilaktika muassasalarini moliyalash tartibiga o'zgartirish kiritish to'g'risida”⁸ qarori (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 5-mayda 679-1-sun bilan davlat ro'yxatidan o'tkazildi) hamda O'zbekiston Respublikasi tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi direktorining “O'zbekiston Respublikasi tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi tizimidagi tibbiy-ijtimoiy muassasalarda pullik xizmat ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi buyrug'i⁹ (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 1-aprelda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3360) va boshqa normativ huquqiy hujjatlar bilan huquqiy tartibga solinadi.

Barcha mamlakatlarda tibbiy xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha shartnomaviy munosabatlar dolzarb masalaga aylangan. Masalan, “Rossiya Federatsiyasi fuqarolari sog'liqni saqlash va malakali tibbiy yordam olish uchun o'zlarining tabiiy huquqlarini qo'shimcha muhim huquqiy kafolatini ta'minlash uchun haq evaziga tibbiy xizmatlar ko'rsatish shartnomasiga ehtiyoj

⁴ <https://www.medicalnewstoday.com/articles/heart-transplant-cost>

⁵ <https://mediglobus.com/ru/where-is-the-cheapest-way-to-get-a-kidney-transplant/>

⁶ Об утверждении Правил предоставления медицинскими организациями платных медицинских услуг: Постановление Правительства РФ от 04.10.2012 г. № 1006 // СЗРФ. 2012. № 41. Ст. 5628

⁷ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligining 2008-yil 23-apreldagi 35, 5-sun (ro'yxat raqami 679-1, 2008-yil 5-may) qarori bilan kiritilgan o'zgartirish bilan. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-sun

⁸ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-y., 19-sun, 169-modda

⁹ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.04.2022-y., 10/22/3360/0260-sun

mavjud va uni hurmat qiladilar”¹⁰. Bugun dunyoning barcha qismlarida Rossiya Federatsiyasida bo’lgani kabi tibbiy xizmatlarni ko’rsatish bo‘yicha shartnomalarga ehtiyoj ortganligini inobatga olib, tibbiy xizmatlar ko’rsatish bo‘yicha shartnomaning nazariya va amaliyotning ayrim masalalarini chuqur va atroflicha ilmiy nazaraiy tahlil qilish lozim deb hisoblaymiz.

Soha bilan maxsus shug‘ullangan olimlardan biri O.V.Gorbunova tibbiy xizmatlarni ko’rsatish bo‘yicha shartnomaviy munosabatlarning eng muhim espektlaridan biri sifatida shartnoma predmeti masalasida quyidagicha fikrlarini bayon etadi: “Haq evaziga tibbiy xizmatlar ko’rsatish shartnomasining predmetini xizmat turi - tibbiy xizmat sifatida taqdim etiladi”¹¹. Tadqiqotchi O.V.Gorbunovaning bu boradagi fikrlarini yoqlaymiz. Chunki, tibbiy xizmatlarni ko’rsatish bo‘yicha shartnomalar qanday turda bo‘lishidan qat’iy nazar bir xil maqsadda salomatlikni ta’minalash maqsad qilinganligi hamda asosan ko’rsatiladigan tibbiy xizmat uchun haq olinadi.

Haq evaziga tibbiy xizmatlar ko’rsatishda taraflarning huquq va erkinliklarini huquqiy tartibga solish yetarlicha murakkab hisoblanadi. Negaki, bunda iste’molchilar huquqlarini himoya qilish hamda tibbiy xizmatlarni ko’rsatuvchi sub’ektlar o’rtasida mavjud samarali raqobat ham masalaning qanchalik dolzarbligini ko’rsatadi.

Keyingi yillarda bu masala bir qator soha olimlari tomonidan o’rganilmoqda. Masalan, tadqiqotchi N.Egamberdiyeva bu borada quyidagi fikrlarni bildiradi: “Haq evaziga xizmat ko’rsatuvchi klinikalar mijozlarga malakali xizmatni taklif (jarrohlik xizmatiga ham ruxsat berilayapti) etar ekan, xizmat sifatiga e’tibor berishlari kerak. Fuqarolik huquqiy munosabat tibbiy xizmat natijasi bo‘lmish oqibatlarda ham namoyon bo‘ladi. Tibbiy xizmatdagi nuqsonlarni quyidagilarda ko’rish mumkin: baxtsiz hodisa; tibbiy xatolar; diagnostik, profilaktik va tibbiy muolaja choralarini bemorga qo’llash chog’ida ehtiyoitsizlik sabab sog’liqqa zarar yetkazish. Huquqqa xilof tibbiy xizmatning eng keng ko’lamingan aniq tushunchalari esa quyidagicha: belgilangan qoida va talablarga to‘g’ri kelmaydigan (qisman yoxud umuman) harakatlarni amalga oshirish; odatda xizmat(ish)larning sifatiga qo‘yiladigan talablar, shartnoma shartlarining noto‘g’ri amalga oshirilishi”¹².

Dunyo davlatlarida tibbiy xizmatlar ko’rsatish, uni moliyalashtirishda turli amaliyot mavjud. Jumladan, Rossiya Federatsiyasida: “Tibbiy tashkilot bir yoki bir nechta moliyalashtirish manbalariga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, tibbiy yordam maqsadli ko’rsatkichlar doirasida byudjet mablag’lari (federal, mintaqaviy, mahalliy) hisobidan ko’rsatiladi. Moliyalashtirish manbalari: moliyalashtirish yoki tasdiqlangan hukumat topshirig’i bo‘yicha; majburiy tibbiy sug‘urta tizimi hisobidan sug‘urtalangan fuqarolarga; milliy loyihamar doirasida va tabiiyki, byudjetdan tashqari mablag’lar hisobidan amalga oshiriladi”¹³

Tibbiy xizmat ko’rsatish bilan maxsus shug‘ullangan tadqiqotchi A.R.Shayaxmetova fuqarolik huquqi tarkibida haq evaziga tibbiy xizmatlar ko’rsatish shartnomalari, tibbiy tashkilot maqomi haqida quyidagi fikrlarini bildiradi: “Sog’lijni saqlash tizimining amaldagi

¹⁰ Высоцкая Л.В. Понятие и юридическая характеристика договора оказания платных медицинских услуг // Территория науки. 2013. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-i-yuridicheskaya-harakteristika-dogovora-okazaniya-platnyh-meditsinskikh-uslug>

¹¹ Горбунова О.В. Общая характеристика договора оказания медицинских услуг // Вестник ВУИТ. 2017. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obschaya-harakteristika-dogovora-okazaniya-meditsinskikh-uslug>

¹² <https://huquqburch.uz/tibbiy-xizmatda-fuqarolik-huquqiy-javobgarlik/>

¹³ А. И. Ломакин, Л. В. Паришкова Организация платных медицинских услуг // Вестник КБ №51. 2013. №4 (1). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/organizatsiya-platnyh-meditsinskikh-uslug>

tuzilmasi doirasida turli tashkiliy-huquqiy shakldagi tibbiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning amaldagi faoliyatida fuqarolarning sog'lijni saqlash va tibbiy yordam olish huquqlarini amalga oshirishga qaratilgan shartnomaviy tartibga solishning yagona mexanizmini yaratish zarur”¹⁴. Tadqiqotchining shu masaladagi fikrlariga qo'shilamiz. Chunki barcha mamlakatlarida haq evaziga tibbiy xizmatlar ko'rsatishga bo'lgan ehtiyoj yil sayin oshmoqda.

Tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomaning predmeti – tibbiy xizmat ko'rsatish ekanligi tamoyilidan kelib chiqib, tadqiqotchi N.N.Volchaninaning tibbiy tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomaning umumiy asoslarda olib borgan tahlillariga nazar tashlasak, “konsensual; kompensatsiyalangan; ikki tomonlama majburiy; rasmiy; ommaviy (ommaviy shartnomaga masalalari yuqorida ko'rsatilgan); buyurtmachi pudratchi bilan shartnomaga tuzishda uchinchi shaxs – jismoniy shaxs – iste'molchiga tibbiy xizmatlar ko'rsatish maqsadida uchinchi shaxs foydasiga tuzilgan bitim bo'lishi mumkin”¹⁵.

Ma'lumki, haq evaziga xizmatlar ko'rsatish shartnomasi¹⁶ huquqiy jihatdan shartnomaga majburiyatlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining ikkinchi qismida (26-bob) mustahkamlangan. Bugun mamlakatimizda tibbiyot sohasida haq evaziga tibbiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va ularning bemorlari o'rtasidagi munosabatlar muhim o'rinni egallaydi.

Diqqatga sazovor jihat shundaki, huquqiy jihatdan haq evaziga tibbiy xizmatlar ko'rsatish masalasida ilmiy adabiyotlarda turli xildagi fikrlar bildirilganligi hamda bu bilan bog'liq munosabatlar guruhami fuqarolik huquqiga tasniflashga huquqiy ehtiyoj mavjud. Fikrimini asoslash maqsadida fuqarolik huquqida bemor va tibbiy xizmat ko'rsatuvchi o'rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarning mohiyatini yaxlit tushunish mavjud emasligi faktorini keltirishimiz mumkin.

Tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasi o'zining huquqiy tabiatiga ko'ra: “O'zining huquqiy tabiatiga ko'ra, tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasi konsensual, kompensatsiyalangan va ikki tomonlama majburiydir. Haq evaziga tibbiy xizmatlar ko'rsatish shartnomasi konsensual, kompensatsiyalangan, ikki tomonlama majburiy, rasmiy hisoblanadi”¹⁷.

Fuqarolarga tibbiy xizmatlar ko'rsatish amaliyoti va shartnomasi asosan davlat va xususiy sog'lijni saqlash tashkilotlari tomonidan ko'rsatilmoqda. Ilmiy izlanishlarimiz hamda tahlillar shuni ko'rsatadiki, yurtimizdada tibbiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilot va unga murojaat qilgan bemor o'rtasidagi munosabatlarning yagona shartnomaga tartibi mavjud emas.

Yana bir qiziq jihat ayni paytda mamlakatimizda fuqarolarga pullik tibbiy xizmat ko'rsatish masalalari qonun bilan to'liq tartibga solinmagan. Bu ularning bepul tibbiy yordam bilan almashtirilishiga, tibbiy xizmatlarning yashirin bozorining rivojlanishiga va fuqarolarning tibbiy tashkilotlarda bepul tibbiy yordam olish imkoniyatlarining pasayishi, tibbiy xizmat ko'rsatish jarayonida bemorni aksariyat holatlarda huquqlari cheklanishiga sabab bo'lmoqda. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun fuqarolarga haq evaziga tibbiy xizmat ko'rsatishning yagona shartlarini belgilash kerak.

¹⁴ А.Р.Шаяхметова. Договор возмездного оказания медицинских услуг: проблемы теории и практики. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Екатеринбург 2012. С-3.

¹⁵ Волчанина Н.Н. Договор на оказание платных медицинских услуг как разновидность договора возмездного оказания услуг / Н. Н. Волчанина. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2014. — № 3 (62). — С. 638-641. — URL: <https://moluch.ru/archive/62/9606/>

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Olyi Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 11-12-son, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.11.2022 y., 03/22/800/0990-son; 16.11.2023 y., 03/23/878/0852-son; 22.02.2024 y., 03/24/911/0142-son; 28.02.2024 y., 03/24/914/0161-son

¹⁷ Волчанина Н.Н. Договор на оказание платных медицинских услуг как разновидность договора возмездного оказания услуг / Н. Н. Волчанина. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2014. — № 3 (62). — С. 638-641. — URL: <https://moluch.ru/archive/62/9606/>

Shu munosabat bilan haq evaziga tibbiy xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaning huquqiy mohiyatini aniqlash, ushbu shartnomada tushunchasini, uning tuzilishi va mazmunini belgilashda yuzaga keladigan bir qator muammoli masalalarni o'rganish nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqib masalani o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yevropa avivatsion xavfsizligi agentligi tomonidan qabul qilingan "Tibbiy xizmat ko'rsatish uchun doiraviy xizmat shartnomasi"da fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini ta'minlash uchun "Tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasining bir qismini tashkil etuvchi bir nechta hujjatlar o'zaro tushuntirish sifatida qabul qilinadi. Bunday qismlar ichidagi yoki o'rtasidagi noaniqliklar yoki nomuvofiqlik mavjud. Taraflar hisoblagan buyurtmachi va tibbiy xizmatdan foydalanuvchi(bemor)ning shartnomada nazarda tutilgan huquqlarini hisobga olgan holda, agar ular bunday ko'rsatmaga e'tiroz bildirishsa, berilgan yozma shartnomaga matni bilan tushuntirilishi yoki tuzatilishi kerak"¹⁸ deb ta'kidlangan.

Tadqiqotchi N.V.Zayseva tomonidan sohaga oid maxsus tadqiqotida tibbiy xizmatlar ko'rsatish shartnomasiga quyidagicha mualliflik ta'rifi ishlab chiqadi: "To'lov evaziga tibbiy xizmatlar ko'rsatish shartnomasi bo'yicha tegishli tadbirkorlik faoliyatini kasbiy asosda amalgalashuvchi shaxs buyurtmachining (bemorning, uchinchi shaxsning) topshirig'iga binoan ma'lum bir fuqaroning manfaatlarini ko'zlab amalgalashuvchi shaxsning majburiyatini oladi. kasalliklarning oldini olish, ularni tashxislash va davolashga qaratilgan, mustaqil ahamiyatga ega va ma'lum bir xarajatga ega bo'lgan tibbiy chora-tadbirlar majmui bo'lib, mijoz ularni to'lashga majburdir"¹⁹.

Tadqiqotching yuqorida bayon qilingan fikrlariga qo'shilgan holda tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomaga quyidagi mualliflik ta'rifi berilishini taklif qilamiz: tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomasi - tibbiy xizmat ko'rsatuvchi tibbiy tashkilot o'ziga murojaat qilgan jismoniy shaxs yoki yuridik shaxs bilan o'zaro kelishuv asosida tibbiy xizmatlar ko'rsatish (muayyan harakatni bajarish, faoliyatni amalgalashuvchi shaxsning majburiyatini oladi, buyurtmachi bunda o'ziga ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar uchun shartnomada ko'rsatilgan pulni to'lashga majburiyatini oladi).

Bundan tashqari shuni alohida ta'kidlash lozimki, so'nggi paytlarda tibbiy xizmatlarning ko'rsatilishi va tibbiy xizmatning sifati bilan bog'liq fuqarolik sudlarida da'volarning soni va ko'lami ko'paygan. Mavjud sud amaliyotlarini ilmiy nazariy o'rganish natijasida, da'vo arizalarining aksariyatida da'vo predmeti sifatida:

- haq evaziga tibbiy xizmat ko'rsatishning sifati;
- tibbiy tashkilotning o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmasligi;
- tibbiy tashkilot bergen og'zaki va yozma va'dalarini o'zaro taraflarning kelishuvida ko'zda tutilganidek bajarmasligi;

-haq evaziga tibbiy xizmatlar ko'rsatish jarayonida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining xulq-atvor qoidalarini belgilash imkonini beradigan yagona huquqiy yechimning yo'qligi va boshqalar.

Tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomaning bandlarida bizning fikrimizcha quyidagi shartlar o'z aksini topgan bo'lishi lozim:

¹⁸ European aviation safety agency. Framework service contract for the provision of medical services. TE.PRO.00011-001 © European Aviation Safety Agency. All rights reserved. Proprietary document. Copies are not controlled. Confirm revision status through the EASA-Internet/Intranet; <https://translate.google.com/>

¹⁹ Н.В.Зайцева. Договор по оказанию медицинских услуг Автореферата по ВАК РФ 12.00.03, кандидат юридических наук. М-2004 С-14

- Tibbiy xizmatdan foydalanuvchi va tibbiy xizmat ko'rsatuvchiga tegishli ma'lumotlar va ularning imzolari;
- tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomaning predmeti;
- tibbiy xizmat ko'rsatishning narxi;
- tibbiy xizmat ko'rsatishning asosiy va qo'shimcha shartlari va muddati;
- tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma taraflarining huquq va majburiyatları;
- shartnoma taraflarining javobgarligi;
- tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish asoslari;
- taraflarning o'zaro kelishuviga ko'ra boshqa shartlar kiritilishi mumkin.

G'arbiy Yevropa davlatlarida tibbiy xizmatlar ko'satish shartnomasi ayrim olimlarning fikricha quyidagi parametrlarni o'z ichiga olishi lozim: "Tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasi tibbiyot xodimlari va bemorlar o'rtasidagi professional munosabatlarning asosidir. Uning asosiy elementlarini tushunish har ikki tomon uchun ham tibbiy yordam ko'rsatishning murakkabliklarini hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Keling, yaxshi tuzilgan tibbiy xizmat shartnomasining muhim elementlarini ko'rib chiqaylik:

Tibbiy xizmatlar doirasi;

Mas'uliyat;

To'lov shartlari"²⁰.

Bizning fikrimizcha tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasi yozma tuzilishi hamda uning tarkibiy qismlarida asosiy va qo'shimcha shartlaridan tashqari quyidagi xususiyatlar ham qamrab olinishi lozim:

Birinchidan, tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasida ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar aniq yozilishi kerak. Masalan: tekshiruvlar, diagnostika tekshiruvlari, davolash vositalari, operatsiyalar va boshqa tegishli xizmatlar tarzida. Shartnomaning taraflari asosan shartnoma doirasida davlatning milliy qonunchiligi sog'liqni saqlash qoidalari asosida kutilayotgan natijalarни bilishlari lozim.

Ikkinchidan, tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasi taraflari shartnoma bandlarida o'zaro kelishib olishgan va milliy sog'liqni saqlash qonunchiligi vositasida huquqiy tartibga solingan huquq va majburiyatlarini o'zaro mas'uliyat bilan bajarishlari kerak.

Uchunchidan, tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasida ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar narxlari, to'lov shartlari, davlat milliy qonunchiligidagi mayjud bo'lsa sug'urta to'lovlar va boshqa to'lovlarni tibbiy xizmat ko'rsatish amaliyotlari - inson a'zolarining transplantatsiyasi, yordamchi reproduktiv texnologiyalar kosmetologiya va stomatologiya xizmatlarini kelishib olishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada "2004-yil aprel oyida Birlashgan Qirollik umumiy amaliyot uchun yangi boshqaruvi va rag'batlantirish tartiblarini ta'minlovchi yangi General Medical Services (GMS) shartnomasini joriy qildi. Xususan, yangi Sifat va natijalar asosi klinik, tashkiliy va amaliyot bilan bog'liq standartlar uchun maqsadlarni belgilangan natijalarga erishish uchun moliyaviy to'lovlar bilan belgilaydigan ballga asoslangan tizimdir"²¹. Buyuk Britaniya shu yo'l bilan tibbiy xizmatlar ko'rsatish shartnomaviy munosabatlarini, shuningdek, fuqarolarga

²⁰ Medical Services Contract Clients Rate Lawyers on our Platform 4.9/5 Stars; <https://www.contractscounsel.com/t/us/medical-services-contract>

²¹ <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC2585462/>

ko'rsatilgan tibbiy xizmatning barcha turlari amaldagi sifat va natijalarini nazorat qilish va tibbiyot tashkilotlarining ishonch indekslarini tabiiy shakllantirishni maqsad qilgan.

Markaziy Osiyoda Qozog'iston tibbiy xizmat ko'rsatishga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solish uchun Qozog'iston Respublikasining 2020 yil 7 iyuldaggi 360-VI ZRK-sonli "Xalq salomatligi va salomatlik tizimi haqida"gi kodeks²²ni qabul qilgan. Mazkur kodeks aholi salomatligini ta'minlash huquqiy ko'lami, yangi tibbiy xizmat bilan bog'liq munosabatlarni o'zida qamrab olganligi bilan shu turdagি boshqa davlatlarning milliy normalaridan farqlanadi.

Haq evaziga tibbiy xizmatlar ko'rsatish Rossiya Federatsiyasida "2011-yil 21-noyabrdagi 323-FZ-sonli "Rossiya Federatsiyasida fuqarolarning sog'lig'ini muhofaza qilish asoslari to'g'risida"gi Federal qonuni, Rossiya Federatsiyasi Hukumatining 04.10.2012-yildagi 1006-son qarori bilan tasdiqlangan "Tibbiy tashkilotlar tomonidan pullik tibbiy xizmatlar ko'rsatish qoidalari", Rossiya Federatsiyasi "Fuqarolik Kodeksi"ning 39-moddasi, shartnomalar to'g'risidagi umumiy qoidalari, ixtiyoriy tibbiy sug'urta oid masalalar Rossiya Federatsiyasi Oliy sudi Plenumining 28.06.2012-yildagi 17-sonli qarori va boshqa normalar bilan tartibga solinadi"²³. Barcha mamlakatlar tibbiy xizmat ko'rsatishga oid munosabatlarni mahalliy shart-sharoitlar va hududda mavjud boshqa omillarni nazarda tutgan holda norma ijodkorligida qanday nomlanishidan qat'iy nazar bir xil mazmun kasb etadigan normativ hujjatlar qabul qilinishi bilan huquqiy tartibga solish ushun qabul qilindi.

Yuqorida qayd qilingan xorijiy mamlakatlar tajribasidan hamda tibbiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha shartnomaviy munosabatlarning nazariy va kundalik joriy amaliyotda mavjud masalalarni tahlilidan yaqqol ko'rinxoqdaki, bugun tibbiy xizmat ko'rsatish munosabatlarini fuqarolik huquqiy tartibga solish muhim.

Tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomasi A.Yu.Galkinning fikri bilan aytganda: "Tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasi barcha shartlari yozma tarzda yozilgan va shartnoma matnida ko'rsatilishi kerak". Yuqorida ta'kidlaganimizdek, A.Yu.Galkinning tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma yozma bo'lishi xususidagi fikrlariga qo'shilamiz. Aksariyat holatlarda tibbiy shartnomalarni yozma tarzda tuzilmasligi shartnoma tarafi hisoblangan mijoz - bemorning konstitutsiya va milliy sog'liqni saqlashga oid qonunlari, hamda boshqa normativ huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan huquq va erkinliklariga buzilishiga sabab bo'lmoqda. Masalan, "MittiVine taxallusi bilan ijod qilib kelgan taniqli vayner va bloger Farhod Mannopov 27 yoshda vafot etdi. Sog'liqni saqlash vazirligi 12-mart kuni Star Med markazi tekshiruvlar davom etayotgani sababli faoliyatini vaqtincha to'xtatganini ma'lum qilgan. 28-aprel kuni vazirlik xususiy klinikaning litsenziyasini bekor qilish to'g'risida sudga ariza bilan murojaat qilgan"²⁴. Yuqoridagi holatda "MittiVine" taxallusiga Farhod Mannopovning 1,2 milliondan ko'proq katta kuzatuvchi obunachilar bo'lganligi va mazkur xabarning ijtimoiy tarmoqlarda tarqalganligi munosabati bilan bu voqeaga nisbatan keng jamoatchilik o'z fikrlarini bildirdi. Biroq kundalik amaliyotda yuqoridagi kabi baxtsiz hodisalar tibbiy xizmat ko'rsatishga oid shartnomalar - inson a'zolarining transplantatsiyasi, yordamchi reproduktiv texnologiyalar vositasida, kosmetologik va stomatologik tibbiy xizmat ko'rsatish jarayonida uchramoqda.

²² <https://zakon.uchet.kz/rus/docs/K2000000360>

²³ <https://kormed.ru/baza-znaniy/dogovor-na-okazanie-platnyh-medicinskikh-uslug-obshchaya-harakteristika/>

²⁴ <https://www.gazeta.uz/oz/2023/09/27/farhod-mannopov/>

Tibbiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha shartnomada mavjud nazariya va amaliyotning ayrim masalalarini tahlil qilib quyidagi xulosalar keldik:

Birinchidan, tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasi - tibbiy xizmat ko'rsatuvchi tibbiy tashkilot o'ziga murojaat qilgan jismoniy shaxs yoki yuridik shaxs bilan o'zaro kelishuv asosida tibbiy xizmatlar ko'rsatish (muayyan harakatni bajarish, faoliyatni amalgalash oshirish) majburiyatini oladi, buyurtmachi bunda o'ziga ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar uchun shartnomada ko'rsatilgan pulni to'lash majburiyatini oladi.

Ikkinchidan, tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomada taraflarning rekvizitlari, shartnomaning predmeti, tibbiy xizmatning narxi, shartnomaning asosiylari va qo'shimcha shartlari va muddati, shartnomada taraflarining huquq va majburiyatlarini, shuningdek, taraflarning bir-biriga nisbatan o'zaro majburiyatlarini, tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish masalalari qamrab olingan bo'lishi lozim.

Uchinchidan, inson a'zolarining transplantatsiyasi, yordamchi reproduktiv texnologiyalar, kosmetologik va stomatologik tibbiy xizmat ko'rsatish va boshqa turdagani tibbiy xizmat ko'rsatish munosabatlarini respublikamizda mavjud tibbiy shartnomaviy amaliyotdan kelib chiqib fuqarolik huquqiy tartibga solish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
2. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 03.08.2021-y., 03/21/705/0742-son; 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son; 04.11.2022-y., 03/22/800/0990-son; 21.01.2023-y., 03/23/815/0044-son
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 11-12-son, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.11.2022 y., 03/22/800/0990-son; 16.11.2023 y., 03/23/878/0852-son; 22.02.2024 y., 03/24/911/0142-son; 28.02.2024 y., 03/24/914/0161-son
4. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-y., 19-son, 169-modda
5. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.04.2022-y., 10/22/3360/0260-son
6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligining 2008-yil 23-apreldagi 35, 5-son (ro'yxat raqami 679-1, 2008-yil 5-may) qarori bilan kiritilgan o'zgartirish bilan. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son
6. Об утверждении Правил предоставления медицинскими организациями платных медицинских услуг: Постановление Правительства РФ от 04.10.2012 г. № 1006 // СЗРФ. 2012. № 41. Ст. 5628
7. М.Чен. Воздействие глобальных кризисов на здоровье: деньги, погода и микробы [Электронный ресурс] / М. Чен // Официальный сайт Всемирной организации здравоохранения. — Режим доступа: http://www.who.int/dg/speeches/2009/financial_crisis_20090318/ru/index.html
8. Волчанина Н.Н. Договор на оказание платных медицинских услуг как разновидность договора возмездного оказания услуг / Н. Н. Волчанина. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2014. — № 3 (62). — С. 638-641. — URL: <https://moluch.ru/archive/62/9606/>

9. Высоцкая Л.В. Понятие и юридическая характеристика договора оказания платных медицинских услуг // Территория науки. 2013. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-i-yuridicheskaya-harakteristika-dogovora-okazaniya-platnyh-meditsinskikh-uslug>
10. Горбунова О.В. Общая характеристика договора оказания медицинских услуг // Вестник ВУИТ. 2017. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obschaya-harakteristika-dogovora-okazaniya-meditsinskikh-uslug>
11. А.И.Ломакин, Л.В.Паришкова Организация платных медицинских услуг // Вестник КБ №51. 2013. №4 (1). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/organizatsiya-platnyh-meditsinskikh-uslug>
12. А.Р.Шаяхметова. Договор возмездного оказания медицинских услуг: проблемы теории и практики. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Екатеринбург 2012. С-3.
13. Н.В.Зайцева. Договор по оказанию медицинских услуг Автореферата по ВАК РФ 12.00.03, кандидат юридических наук. М-2004 С-14
14. European aviation safety agency. Framework service contract for the provision of medical services. TE.PRO.00011-001 © European Aviation Safety Agency. All rights reserved. Proprietary document. Copies are not controlled. Confirm revision status through the EASA-Internet/Intranet; <https://translate.google.com/>
15. Medical Services Contract Clients Rate Lawyers on our Platform 4.9/5 Stars; <https://www.contracts counsel.com/t/us/medical-services-contract>
16. <https://huquqburch.uz/tibbiy-xizmatda-fuqarolik-huquqiy-javobgarlik/>
17. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/09/27/farhod-mannopov/>
18. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC2585462/>
19. <https://kormed.ru/baza-znaniy/dogovor-na-okazanie-platnyh-medicinskikh-uslug-obshchaya-harakteristika/>
20. <https://zakon.uchet.kz/rus/docs/K2000000360>